



RESPUBLIKA ILMIY-USLUBIY JURNALI

TA'LIM FIDOYILARI

JIFACTOR: 8.2

2024

- PHILOLOGICAL SCIENCES
- PEDAGOGICAL SCIENCES
- SOCIAL SCIENCES AND HUMANITIES
- EXACT SCIENCES
- NATURAL SCIENCES
- ECONOMICS
- ART AND CULTURE
- MEDICAL SCIENCES

OPEN  ACCESS



ISSN:2181-2160



+998 97 277 78 01



WWW.REANDPUB.UZ



INFO@REANDPUB.UZ

R.A.P



CYBERLENINKA



BASE



OpenAIRE



Google Scholar



«TA'LIM FIDOYILARI»
ILMIY-USLUBIY JURNALI

BARCHA SOHALAR BO'YICHA

11-SON, 1-JILD NOYABR 2024 - YIL 1-QISM





EDITOR IN CHIEF

ABDURAHMONOV ABDUSHOKIR ABDUKARIMOVICH

PREPARING FOR PUBLISHING

HAKIMOVA AZIZA XAYDARALIYEVNA

BOSH MUHARRIR

ABDURAHMONOV ABDUSHOKIR ABDUKARIMOVICH

NASHRGA TAYYORLOVCHI

HAKIMOVA AZIZA XAYDARALIYEVNA

TAHRIR KENGASH A'ZOLARI

Azimov Jumanazar Turg'unovich

O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari Akademiyasi dosenti. Fizika-matematika fanlari falsafa doktori. PhD.

Dr. Israilov Mamarakhim

Doctor of Philosophy (Ph.D) Technics., Associate professor of the Department of "Natural Sciences" of the Academy of Armed Forces of the Republic of Uzbekistan

Maksudova Firusa Xurshidovna

Toshkent farmatsevtika institutining «Dori vositalarining sanoat texnologiyasi» kafedrasi mudiri

Kojikbaeva Ziyada Adilbaevna

Qoraqalpoq davlat universiteti Jumalistika kafedrasi dotsenti

Allaberganova Gulchehra Masharipovna

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetining "Umumiy fizika" kafedrasi dotsenti

Shamshiyeva Hulkar

Toshkent shahri Olmazor tumani Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabi matematika o'qituvchisi

Soliyev Hayitboy Mirzadavlatovich

Namangan muxandislik-qurilish instituti Transport fakulteti Transport logistikasi kafedrasi, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD, dotsenti

Ustaboyev Abdullo Raximjonovich

Namangan muxandislik-qurilish instituti Transport fakulteti Transport logistikasi kafedrasi, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD, katta o'qituvchi

Matyakubova Yulduzxon Amanbayevna

Urganch davlat Universiteti Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya kafedrasi, qishloq ho'jaligi fanlari nomzodi, dotsent

Mirzabdullaeva Gulnora Muxammadjon qizi

Namangan muhandislik-qurilish instituti menejment kafedrasi assistenti

Berdikulov Sirojjon Nasipkulovich

Academy of the Ministry of internal affairs of the Republic of Uzbekistan Social-Humanitarian professor of the Department of Sciences, Doctor of philosophy, professor

Shukhrat Batirovich Djabbarov

Ph.D. (Tech.), Department of "Wagons and wagon facilities", Tashkent State Transport University

Shokirova Havasxon Nurmamatovna

Farg'ona xalq ta'limi boshqarmasi Ta'lim markazi direktori

Baratova Maxbuba Mubinjanovna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti, falsafa fanlari nomzodi, dotsent

Dauletmuratova Zamira Usnatdinovna

Qoraqalpoq davlat universitetining Qoraqalpoq tilshunosligi kafedrasining assistent-o'qituvchisi

Shokirova Havasxon Nurmamatovna

Farg'ona xalq ta'limi boshqarmasi Ta'lim markazi direktori

Xakimniyazov Jolmurza Xojabekovich

Qoraqalpoq Davlat Universiteti Tarix fakulteti Tarix fanlari nomzodi docent

Qodirov Ziyoidin Mamadalievich

Andijon davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasi katta o'qituvchisi

Alimjon Tojiev Mo'ydinovich

Andijon davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti

Tojiboeva Gulxumor Raxmonjonovna

Andijon davlat universiteti umumiy psixologiya kafedrasi katta o'qituvchi

Yunusova Gulshod Nazixovna

Namangan davlat universitetining «Amaliy matematika va axborotlartexnologiyalari» kafedrasi katta o'qituvchisi

Ergashev Bobirjon Boxodirovich

Pedagogik innovatsiyalar, kasb-hunar talimi boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti Malaka oshirish va qayta tayyorlash fakulteti dekani

Abdugapparov Farkhod Sultonakhmadovich

PhD, Senior Lecturer, Department of Chemistry, Andijan State University, Republic of Uzbekistan.

Nabieva Saidaxon Abduvaxobovna

Toshkent davlat texnika universiteti Sanoat iqtisodiyati va menejment kafedrasi dotsenti (PhD)

ZAKIROVA RUXSONA YUNUSOVNA

Toshkent farmatsevtika institutining Dori vositalarining sanoat texnologiyasi kafedrasi v/b dotsenti

Raxmatullaeva Gulnora Kutbitdinovna

TTa nevrologiya va tibbiy psixologiya kafedrasi dotsenti

Achilova Sanobar Sabirovna

Urganch davlat universiteti kimyoviy texnologiyalar fakulteti Ozik ovkat kafedrasi dotsenti

Turakulov Ibroxim Ravshanovich

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Aniqtatbiy va jismoniy madaniyat fakulteti Sport turlarini o'qitish metodikasi kafedrasi v.v.b.dotsenti

Usmonaliev Risolat Umaralievna

Surxondaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi" Ijtimoiy- iqtisodiy fanlar metodikasi" kafedrasi katta o'qituvchisi

Sobirov Abdulkay Shukirovich

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat universiteti ma'naviyat va ma'rifat bo'yicha prorektori

Jo'rayev Hamza Hamraqulovich

Uzbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, San'atshunoslik fakulteti, Tasviriy san'at va muxandislik grafikasi kafedrasi dotsenti

Erkaboy Yu. Dardibaev

Toshkent davlat agrar universiteti, DEXKONCHILIK va melioratsiya kafedrasi professori

Saidova Markhabo Xabibullo kizi

DOCTOR OF PHILOSOPHY (PH.D) in ECONOMICAL SCIENCES



O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLARI

Narziyeva Dilafiruz Muxtorovna

Buxoro davlat universiteti

Iqtisodiyot kafedrası katta o'qituvchisi

Annotasiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari hamda jahon bankining samarali loyihani amalga oshirish bo'yicha tahliliy ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Raqamli iqtisodiyot, raqamli transformatsiya, elektron tijorat, AKT(axborot va kommunikatsiya texnologiyalari), IT xizmatlar eksporti

Jahon iqtisodiyoti ulkan, jadallashtirilgan raqamli transformatsiyani boshdan kechirmoqda, natijada yangi biznes modellari, innovatsion mahsulotlar va xizmatlar hamda biznes yuritishning juda xilma-xil usullari yaratilmoqda.

Raqamli iqtisodiyot har yili eksponent o'sib bormoqda va bu yaqin kelajakda tez sur'atlar bilan davom etishi kutilmoqda.

Raqamli iqtisodiyot - bu odamlar, korxonalar, qurilmalar, ma'lumotlar va jarayonlar o'rtasidagi milliardlab kundalik onlayn ulanishlar natijasida yuzaga keladigan iqtisodiy faoliyat. Raqamli iqtisodiyotning asosi giperkonnektivlikdir, bu Internet, mobil texnologiyalar va narsalar interneti (IoT) natijasida odamlar, tashkilotlar va mashinalarning o'zaro bog'liqligini anglatadi.

Raqamli iqtisodiyot iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarni raqamli texnologiyalarni qo'llash asnosida amalga oshirishning yaxlit bir tizimi sifatida qaraladi. Bunda raqamli iqtisodiyot yangi texnologiyalar, platformalar va biznes modellari yaratish va ularni kundalik hayotga joriy etish orqali mavjud iqtisodiyotni yangicha tizimga ko'chirish demakdir.

So'ngi yillarda iqtisodiyotning raqamli sektorini rivojlantirish borasida davlat tomonidan keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirish maqsadida Prezidentimiz tomonidan bir qator normativ-huquqiy hujjatlari imzolandi.

Raqamli iqtisodiyotni keng joriy etish va uni qo'llab-quvvatlash mamlakatimizning istiqboldagi taraqqiyot rejasidan muhim o'rin egallaganligi tufayli iqtisodiyotning raqamli sektorini rivojlantirish borasida keng ko'lamli chora-tadbirlar belgilandi va mazkur vazifalar ijrosi o'laroq, mamlakatimizda yangi elektron hujjat aylanishi tizimlari joriy etilmoqda, elektron to'lovlar rivojlantirilmoqda va elektron tijorat sohasidagi normativ-huquqiy baza takomillashtirilmoqda, elektron infratuzilma va tijorat shakllantirilmoqda, iqtisodiyotning barcha jabhalarida raqamli transformatsiyaga o'tilishi qadamma-qadam amalga oshirilmoqda.



Raqamli transformatsiya realizatsiyasi bo'yicha so'ngi yillarda amalga oshirilgan ishlar qatorida aholi va tadbirkorlik subyektlarining davlat organlari bilan kontaktsiz aloqa shakllarini yana-da rivojlantirish maqsadida Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalining yangi versiyasi, Bosh vazirning tadbirkorlar murojaatlarini ko'rib chiqish virtual qabulxonasi "business.gov.uz" portali ishga tushirildi.

Raqamli iqtisodiyot texnologik va biznes jarayonlari, ishlab chiqarish, logistika va tayyor mahsulotlarning savdosini raqamlashtirish uchun mamlakatimizda zamonaviy infratuzilmaga ega bo'lgan "IT-park"lar tashkil etildi. Kripto-aktiv va blokcheyn texnologiyalar sohasidagi kompaniyalarning erkin faoliyati yo'lga qo'yildi.

Shuni qayd qilish kerakki, raqamli iqtisodiyot rivojlangan davlatlarda YAIM hajmi ham, YAIMning aholi son boshiga ulushi ham yuqoriligini ko'rishimiz mumkin. Shu jihatdan olib qaraganda, mamlakatimizda mazkur masalaga e'tibor qaratish yagona maqsadni ko'zlaydi, u ham bo'lsa, aholining yashash sharoitini yaxshilash, aholini real daromadini oshirish, qolaversa tadbirkorlikni va mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishdir.

"Raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi. Shu bilan birga, meni juda qattiq tashvishga soladigan va bezovta qiladigan eng og'ir illat – korrupsiya balosini yo'qotishda ham samarali vositadir" - Prezidentimizning mazkur so'zlari raqamlashtirish nafaqat iqtisodiyot tarmoqlarida tejamkorlik va samaradorlikni ta'minlashi, balki korrupsiya va qora iqtisodiyotga qarshi kurashish uchun samarali vosita sifatida qayd etilishi bilan ahamiyatlidir.

Jahon banki Ijrochi direktorlar kengashi O'zbekistonning raqamli inklyuziyasi loyihasini amalga oshirish uchun 50 million dollarlik imtiyozli kredit ajratishni ma'qulladi. Loyiha raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash hamda qishloq va chekka joylarda minglab yoshlarning axborot texnologiyalari xizmatlarida raqamli ko'nikmalarga ega bo'lish va ish bilan ta'minlash imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan.

O'zbekistonda ITES xizmatlari eksporti 2017-yildagi 600 ming dollardan 2022-yilga kelib 140 million dollargacha sezilarli darajada oshdi, bu bilan bir vaqtda axborot texnologiyalari (IT) sohasida kompaniyalar soni va yuqori maoshli ish o'rinlarining oshishi kuzatildi. Ushbu ijobiy o'sishga qaramay, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) savdosi sektorining mamlakat yalpi ichki mahsulotiga qo'shgan hissasi 2022-yilda 1,9 foizni tashkil etdi.

Mamlakatni 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasida ("O'zbekiston – 2030" strategiyasi) ushbu o'n yillik yakuniga qadar O'zbekiston Markaziy Osiyo axborot texnologiyalari markaziga ("IT-HUB") aylanishi, IT-xizmatlarining yillik eksporti hajmini 5 milliard dollarga yetkazishi, IT-kompaniyalarning mamlakatdagi vakolatxonalari sonini 1000 tagacha oshirishi va 300 ming nafar yoshlarni IT sohasida ish bilan ta'minlashi kerakligi aytiladi.

Jahon banki tomonidan qo'llab-quvvatlanoyatgan yangi loyiha O'zbekistonga ITES xizmatlari sohasidan iqtisodiy o'sish, yangi ish o'rinlari yaratish va xorijiy investitsiyalarni



jalb qilish maqsadlarida foydalanishga yordam beradi. Mamlakatning qishloq va chekka hududlarida istiqomat qiluvchi 30 yoshgacha bo'lgan minglab yoshlarni o'qitish maqsadini ko'zlagan ushbu loyiha Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi IT-Park tomonidan amalga oshiriladi. Loyiha doirasida ushbu tayyorlov kurslaridan o'tgan shaxslarni ishga oladigan ITES kompaniyalari uchun turli xil rag'batlar taqdim etiladi.

Jahon banki hisob-kitoblariga ko'ra, 2029 yilda loyiha yakuniga kelib O'zbekiston ITEC xizmatlari sohasida 25,000 kishi ish bilan ta'minlanishi va 15,000 kishi turdosh sohalarda ish topish imkoniyatiga ega bo'lishi prognoz qilinyapti. Loyiha ushbu maqsadlarga erishishi uchun turli xil chora-tadbirlarni amalga oshiradi, jumladan:

- butun mamlakat bo'ylab zamonaviy ofis maydonlarini taklif qiluvchi 11 tagacha hududiy ITEC markazlari ishga tushiriladi. Bu ITEC kompaniyalarini O'zbekiston hududlarida o'z vakolatxonalarini ochishga rag'batlantiradi;
- 6200 ga yaqin yoshlar, shu jumladan 3100 nafar ayollar va 250 nafar nogironligi bo'lgan shaxslar kommunikatsiya, kompyuter va til ko'nikmalarini (ITEC kompaniyalarida talab qilinadigan ingliz va boshqa chet tillari) o'z ichiga olgan asosiy professional ko'nikmalarni rivojlantirish dasturlari bo'yicha ta'lim oladi;
- 9000 ga yaqin yoshlar, shu jumladan 4500 nafar ayollar va 360 nafar nogironligi bo'lgan shaxslar ITEC kompaniyalarida ish bilan ta'minlanadi;
- Kompaniyalarga o'z navbatida loyiha doirasidagi ishtirokchilarni ishga olishi uchun moddiy rag'batlar beriladi;
- O'zbekistonda xorijiy va mahalliy ITEC kompaniyalari faoliyati uchun qulay shart-sharoitlarni ta'minlashda muhim o'rin tutgan normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqiladi.

Hozirda, raqamli iqtisodiyot rivojining zamonaviy bosqichida, O'zbekiston uning shakllanish davri va rivojlanishining yuqori dinamikasi bilan xarakterlanadi. Mavjud jahon tendentsiyalarini e'tiborga olib, O'zbekiston uchun jamiyat hayotining barcha sohalarida AKTni jadal qo'llash, shuningdek raqamli texnologiyalarning umumiy rivojlanishi innovatsiyalarni harakatlantiruvchi kuchiga aylanadi hamda jahon iqtisodiyotiga integratsiya va uyg'unlashish imkonini beradi. Ko'pgina davlatlardagi kabi, ushbu ilmiy tadqiqotlar respublikamiz uchun dolzarb hisoblanadi. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot rivojlanishining o'ziga xos tomonlari uning shakllanishini o'rganish va tahlil qilish, shuningdek, korxonalarda zamonaviy AKT tatbiq qilishning asosiy muammolarini aniqlash, raqamli iqtisodiyot shakllanishi sharoitida korxona faoliyatini tashkil qilishni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Xulosa o'rnida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy jihatdan kuchli, bozor iqtisodiyoti qonunlari to'liq amal qiladigan demokratik davlat qurishga hamda mamlakatda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, tadbirkorlik faoliyatiga keng qulaylik yaratish va uni yuritishni soddalashtirish, yangi innovatsion g'oyalar realizatsiyasiga xizmat qiluvchi asosiy vositalardan biri ekanligi bilan alohida ahamiyatga egadir.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

Narzieva, D. M. (2024). Fundamentals of Digital Marketing Development. *Research and Publications*, 1(1), 180-184.

Narziyeva D. Korxonalarda benchmarking strategiyalarini qo 'llashning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlari. – 2024.

Niyozova, I. N., & Maftuna, M. (2024). INTERNET MARKETINGDAN SANOAT KORXONALARI FAOLIYATIDA FOYDALANISHNING AHAMIYATI. INTELLECTUAL EDUCATION TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS, 3(27), 103-107.

Khamidov, O., Tokhirov, J., Khurramov, O., & Barnayev, Z. (2023). Trajectory of economic development of the Republic of Uzbekistan in the process of digitization. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 431, p. 07049). EDP Sciences.

Narzieva, D. M., and A. D. Kudratov. "the importance of digitalization of the economy and priorities in Uzbekistan." *World Economics and Finance Bulletin* 2.2 (2021): 9-13.

Ниёзова, И. (2024). То'qimachilik korxonalari faoliyatida internet marketingdan foydalanishning ahamiyati va zarurati. *Новый Узбекистан: наука, образование и инновации*, 1(1), 218-221.

<https://thedocs.worldbank.org/en/doc/13c7421a17a1d4c8d954934ffbee06ee-0080012023/original/PR-on-UZ-Digital-Inclusion-Project-30-11-2023-UZ.pdf>





MUNDARIJA

1	O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLARI Narziyeva Dilafiruz Muxtorovna	4
2	DEVELOPING THE SKILLS OF PERFORMING ON MUSICAL INSTRUMENTS IN PRIMARY SCHOOL GRADES Rakhmatov Bekzod Juroevich	8
3	TEACHING PIANO PERFORMANCE: FOCUSING ON FINGER MOVEMENT Mamrasulov Kholmats Davronovich	12
4	EKALOGIK SIYOSATNING IQTISODIY RIVOJLANISHGA TASIRI Jo'rayeva Lola Abdugabbarovna	17
5	INVESTITSIYA SIYOSATI Abayqulov Behro'z Dilshod o'g'li Djo'rayeva Lola Abdugabbarovna	22
6	RIVOJLANIB BORAYOTGAN INNOVATSION SIYOSAT VA TA'LIM Xamdami Sanjar Xusniddin o'g'li Djo'rayeva Lola Abdugabbarovna	26
7	IQTISODIY SIYOSAT FANINING NAZARIY ASOSLARI Eshboyev Samandar Juma o'g'li Djo'rayeva Lola Abdugabbarovna	31
8	YOSHLAR VA HUQUQIY TA'LIM: KASBIY MUVAFFAQIYATGA ERISHISH YO'LI Jomurodov Abuazizbek Jasurovich	36
9	ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА ХОТИН-ҚИЗЛАР ҲУҚУҚЛАРИНИНГ ҲИМОЯСИ ВА КАФОЛАТЛАРИ Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна	41
10	Laughter-Crying Versus Related Concepts in Uzbek and English Azimova Muxtasarxon Jaloldin qizi To'liqinova Mushtariybegim Erkinjon qizi Tilavmurodova Lola Bahridin qizi	51
11	NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLAR INSON OMILI UCHUN Qodirova Mamlakat Mo'minovna Amirov Muxammad Cho'lliev Og'abek	60
12	QIRQQIZ FORTRESS: A NEW CHAPTER IN CENTRAL ASIAN ARCHITECTURE AND CULTURE Abdiraxmonova Maxfuza Nodir qizi	64
13	QO'SHMA GAPLARNI O'QITISHNING DIDAKTIK BOSQICHLARI Akramova To'xtaxon Naribjanovna	71
14	РОЛЬ ПЛАВАНИЯ В ГАРМОНИЧНОМ ФИЗИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ ЧЕЛОВЕКА Д.А. Сафин	76
15	Challenges of Learning to Write Properly in English Abdiganiyeva Go'zalxon Oxunjon qizi	83
16	Teaching Future Economists to Work with Vocabulary: Methods and Importance Shamansurova Nodira Azimovna	90
17	ELEKTR TA'MINOTI ISHONCHLILIGINI OSHIRISHDA QAYTA TIKLANUVCHAN ENERGIYA MANBALARINING O'RNI Babajanova Yulduz Faxriddin qizi	96



18	TALABALARNING ILMIY BASHORAT QILISH KO'NIKMASI KASBIY FAOLIYAT MUAMMOSI SIFATIDA Rustamov Bektosh Ximmatovich Talipova Yulduz Shavkat qizi Sayfiddinova Sabina Muhiddinovna	105
19	ANDIJON VILOYATI QISHLOQ XO'JALIGINING CHORVACHILIK TARMOG'INI STATISTIK MA'LUMOTLAR ASOSIDA IQTISODIY INDEKSLI TAHLILI Iskandarov Davlatbek Xursanbekovich Muydinov Xusniddin Nuriddin o'g'li	114

